
Mahallalarda ichimlik suv tarmog'i tortilmoqda

✿ Rishton tumanida qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, ichki yo'llar, ichimlik suv, elektr energiyasi va gaz ta'minotini, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa infratuzilma ob'ektlarini yaxshilash, shu asosda aholi uchun munosib turmush sharoitlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

* Prezidentimizning 2022 yil 25 oktyabrda qabul qilingan "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida hududlarda salmoqli ishlar boshlab yuborildi.

???? Tumandagi bir qator mahalla fuqarolar yig'inlarida ichimlik suv ta'minoti bilan bog'liq mavjud muammolarni bartaraf etish va bu orqali aholiga qulaylik yaratish ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, "Pastki Beshkapa" MFY hududida 6 km ichimlik suvi tarmog'i tortiladi va 2 ta quduq rekonstruktsiya qilinib yumshatish uskunasi o'rnatiladi. "Yoshlik» MFYda ham 2 km ichimlik suv tarmog'i tortilmoqda va bitta quduq to'liq rekonstruktsiya qilinadi. "Bo'ston" MFYda 1 km ichimlik suvi tarmog'i tortilmoqda va bitta quduqni to'liq rekonstruktsiya qilish va yumshatish uskunasi o'rnatilish ishlari boshlandi.

???? Tumandagi barcha mahallalarda hududlar infratuzilmasini yaxshilash maqsadida obodonlashtirish va qurilish-ta'mirlash ishlari davom etmoqda.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati.

2023-01-17 15:03:06